

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7 martdag'i  
PF-87-sonli Farmoni ijrosi bo'yicha**

**MA'LUMOT**

Davlatimiz Rahbarining mazkur Farmoni ijrosi yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Jumladan:

**I. Qo'mita faoliyatini samarali tashkil etish yo'nalishida:**

**1) 35 ta qonunchilik hujjati**, shundan **7 ta** qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **10 ta** hujjati, Hukumatning **18 ta** qarori loyihalari **ishlab chiqildi**.

Bugungi kunga qadar **15 ta qonunchilik hujjati**, shundan, **1 ta** Qonun (o'zgartirishlar bilan), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **5 ta** hujjati va Vazirlar Mahkamasining **9 ta** qarori **qabul qilindi** va ijroga qaratildi.

**2)** "Oila va xotin-qizlar" ilmiy tadqiqot instituti tomonidan mahalla xotin-qizlar faollari uchun **15 ta uslubiy qo'llanma va ommabop risolalar** tayyorlandi.

Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida **10 ta** mutasaddi vazirlik va idoralar bilan hamkorlik Memorandumi va **7 ta** qo'shma dastur tuzildi va amaliyotga joriy etildi.

**3)** Qo'mita tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida **ochiq tanlov natijalari asosida** jami murojaat qilgan **47 590 nafar** nomzod orasidan Qo'mita markaziy apparatiga **49 nafar**, hududiy bo'linmalar boshliqlari lavozimiga **208 nafar**, mahallalardagi xotin-qizlar faoli lavozimiga **9 370 nafar munosib nomzodlar saralanib**, o'rnatilgan tartibda lavozimlarga tayinlandi.

Ushbu lavozimga tayinlangan xodimlarda **boshqaruva ko'nikmalarini shakllantirish va ish faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida** Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan hamkorlikda **3 bosqichli o'quv kurslari** tashkil etildi.

**4)** Respublikamizning **17 mln 630 ming 590 nafar** xotin-qizlari haqidagi ma'lumotlarni qamrab olgan yagona baza "**xotin-qizlar balansi**"ni shakllantirish bo'yicha "**Xotin-qizlar.uz**" platformasi yaratildi.

Mazkur platformada, "Ayollar daftari"ni yuritish, "Ayollar balansi"ni shakllantirish, oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish hamda mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo'lgan xotin-qizlarga Qo'mita tomonidan tavsiyanoma berish **tizimlari joriy etildi**.

Bundan tashqari, **Qo'mita tomonidan** xotin-qizlarning har birini orzu-istaklari, muammolarini o'rganish va to'liq ma'lumotlar bazasiga ega bo'lish maqsadida **17 ta** yo'nalish va **138 ta** ma'lumot bazasini o'z ichiga olgan "**Xotin-qizlar balansi**" yaratildi.

Bugungi kunga qadar mahalla xotin-qizlar faollari tomonidan “fuqarobay” olib borilgan o’rganishlar natijasida **507 776 ta** muammo aniqlandi, ularning **466 639 tasi** hal etildi.

**4)** Mahallalardagi xotin-qizlar faollari **faoliyatining eng muhim samaradorlik ko’rsatkichlari** belgilandi.

#### **Tahlil natijalariga ko’ra, bugungi kunda:**

– Sirdaryo, Toshkent, Jizzax viloyatlari xotin-qizlar faollarining faoliyati natijadorligi **86,9** va **89,9 ball**ni;

– Navoiy, Andijon, Qoraqalpog’iston Respublikasi, Xorazm, Namangan, Buxoro, Samarqand, Farg’ona, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, Toshkent shahar xotin-qizlar faollarining faoliyati natijadorligi **90,1** va **93,8 ball**ni tashkil etdi.

Mahalla xotin-qizlar faollarining **7 843 nafari 85-100 ball, 1 459 nafari 70-85 ball, 67 nafari 59-70 ball** olgan.

**5)** Obro’-e’tiborli va hayotiy tajribaga ega bo’lgan, faol va tashabbuskor ayollarning sa’y-harakatlarini **bir g’oya va bir maqsad** ostida birlashtirish maqsadida “**Oqila ayollar**” harakati tashkil etildi va bugungi kunda ularning soni **150 000 nafardan oshdi**.

**Jumladan**, respublikada **50 nafar**, viloyatlarda **50 nafardan 714 nafar**, tuman (shahar)larda **30 nafardan 6 262 nafar** hamda har bir mahallada **15 nafardan 140 ming 593 nafar, jami 147 ming 619 nafar** oila va xotin-qizlar ma’naviyatini yuksaltirishda jamoatchilikka tarbiyaviy ta’sir ko’rsata oladigan faol va tashabbuskor ayollar jalb etildi.

**111 241 ta ko’chalarda** faollar ishtirokida **saylovlari** o’tkazilib, **118 195 nafar** “**Ko’chaboshi**” va “**Uyboshi**” **ayollar** saylab olindi, bugungi kunda “**Ko’chaboshi ayollar**” hamda “**Oqila ayollar**” harakatlarining quyi bo’g’indagi faoliyati o’zaro uyg’un holda ish olib bormoqda.

**II. Xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko’nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga ko’maklashish, tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to’g’ri yo’naltirish yo’nalishida:**

**1)** Joriy yilda, **ehtiyojmand oilalardagi** ilmga intilgan xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash maqsadida **xotin-qizlar.uz** platformasi orqali **84 104 nafar** ehtiyojmand xotin-qizlarning **35 689 nafariga** tavsiyanomalar berildi.

**2)** Ilk marotaba mutaxassisligi bo‘yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega bo’lgan, lekin oliy ma’lumotga ega bo’lmagan **29 ming 531 nafar** xotin-qizlarni imtiyozli asosda davlat oliy ta’lim muassasalariga o’qishga qabul qilish maqsadida **xotin-qizlar.uz** platformasi orqali arizalari qabul qilindi va ular orasidan normativ hujjatlar mezonlariga to’g’ri kelgan **28 ming 664 nafariga** tavsiyanoma berildi.

**3)** Barcha hududlarda “**INNOWOMENWEEK**”, “**Hududning 100 nafar ixtirochi ayoli**” innovatsion haftaliklari o’tkazildi. Tadbirlarga **15 ming nafar**dan ortiq olma ayollar jalb etildi.

Ushbu haftaliklar doirasida **190 ta** konferensiya, ilmiy-amaliy seminar, tanlov va xotin-qizlarning innovatsion ishlanmalarining ko'rgazmalari, **94 ta** seminar-trening, **15 ta "Ayollar festivali"** hamda **175 ta** davra suhbati va turli tadbirlar tashkil qilindi.

Janubiy Koreya davlatida o'tkazilgan "**KIWIE - 2022**" xalqaro ko'rgazmasi doirasida tashkil etilgan tanlovda ishtirok etgan yurtimiz olima ayollari **1 ta maxsus sovrin (Gran-pri)**, **6 ta oltin**, **6 ta kumush** va **3 ta bronza** medallarini qo'lga kiritishdi.

**4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyundagi PQ-300-son** qaroriga asosan mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish ishlarini yanada jadallashtirish maqsadida **kompleks yondashuv asosida ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish tizimi** yaratildi.

Mahallalardagi xotin-qizlar faollari va **16 ta** ijtimoiy himoyaga mas'ul vazirlik, idoralarning **4,4 ming nafarga yaqin** mutaxassislari ushbu xayrli ishga mas'ul etib belgildi.

"Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi negizida "**Mahallada ijtimoiy xizmat**" **avtomatlashtirilgan maxsus elektron moduli** ishlab chiqildi va tajriba-sinov sifatida **Surxondaryo viloyatining** mahallalarida joriy etildi.

Ayni paytda respublika bo'yicha **2 mln. 670 mingga yaqin** oilalar o'rghanildi, ulardan **192 536 ta** ijtimoiy xizmatga ehtiyoji mavjudlari aniqlanib, **165 ming 320 tasi** ijobiy hal etildi, **85 mingdan** ortig'i o'rghanish jarayonida.

**5) Joriy yilning o'tgan davri mobaynida 528 mingga yaqin** xotin-qizlar bandligi ta'minlandi.

**6) "Xotin-qizlar balansi"**ga ishlash istagi bor **525 mingdan ziyod** vaqtinchcha ishsiz xotin-qizlar kiritilgan bo'lib, ularning **150 mingga yaqini rasman ishsiz** sifatida ro'yxatga olingan (**375 mingdanortigi norasmiy band**).

**7) Ayollar tadbirkorligi dasturlari** doirasida **285 mingga yaqin** loyihalarga **6,4 trillion so'm** kredit va subsidiyalar ajratildi.

Jumladan, Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi tomonidan **10 647 nafar** tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan xotin-qizlarga Halq bankidan imtiyozli kredit olish uchun **100,0 mrld. so'm** resurs mablag'lari ajratildi.

**8) Tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagida bo'lgan 89 mingdan ortiq xotin-qizlar tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazildi** va bugungi kunga qadar ushbu tadbirkor xotin-qizlar tomonidan **173 165 ta** yangi ish o'rincini yaratildi.

**9) 195 mingdan ziyod** ayollar, shundan **66 ming 255 nafari** Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida, **39 ming 446 nafari** nodavlat ta'lim muassasalarida kasbhunar va tadbirkorlikka o'qitildi.

Markazlar faoliyatini tashkil etish uchun Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi tomonidan **7,7 mlrd. so'm** moliyalashtirildi.

**10) Xotin-qizlar bandligini ta'minlashda Samarqand viloyatida "Bir hunarmandga o'nta shogird"** tashabbusi ilgari surildi va natijada "**Usta-shogird**"

an'anasi bo'yicha **7 ming 941 nafar** hunarmand ayollar aniqlandi. **21 ming 601 nafar** (70,1%) ishsiz xotin-qizlar hunarmandlarga shogird sifatida biriktirildi, natijada shogirdlar soni **26 foizga** ko'paydi.

Ayni paytda, Buxoro viloyati tajribasi asosida "**1000 ta tadbirkor ayolga - 1000 ta shogird**" loyihasini amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

### **III. Gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yo'nalishida:**

**1)** Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini keng targ'ib qilish uchun gender masalalari bo'yicha **140 nafar** trener hamda **28 ta targ'ibot guruhlari** shakllantirildi, ular uchun bo'yicha o'quv seminarlari bo'lib o'tdi.

**2)** Xotin-qizlar masalalarida yagona yondashuv asosida vazirlik va idoralar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida **Xotin-qizlarning jamiyatdagи rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi** tuzildi.

Komissiyaning ishchi organi sifatida **Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi** belgilandi. Ushbu faoliyatni quyi tizimgacha yo'lga qo'yish maqsadida **mahalliy Kengashlarda hududiy komissiyalar** tashkil etildi.

**3)"Gender-madad"** elektron huquqiy maslahat platformasi hamda uning **mobil ilovasi** ishga tushirildi.

Ularga "Ayollar huquqiy himoyasi", "Gender tenglik", "Ayollarga imtiyozlar", "Oilaviy munosabatlar" va "Oilaviy zo'ravonlik" kabi huquqiy mavzularga oid ma'lumotlar bazasi joylashtirildi hamda huquqiy maslahatlarni **onlayn chat** orqali berish tizimi yo'lga qo'yildi.

**3)"Davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirish dasturi"** ishlab chiqildi.

Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan hamkorlikda rahbar xotin-qizlarni tayyorlash bo'yicha **60 soatlik** malaka oshirish kurslarining o'quv rejdasturlari ishlab chiqildi, o'quv reja dasturlar asosida tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda o'quv kurslari tashkil etildi hamda **319 nafar** rahbar xotin-qizlar o'qitildi.

Shuningdek, davlat boshqaruvining turli sohalarida faoliyat olib borayotgan rahbarlik salohiyati va qobiliyatiga ega bo'lgan **25 055 nafar** xotin-qizlardan **zaxira kadrlar** shakllantirildi.

Bugungi kunda, ulardan **100 nafar** nomzod saralanib olindi va **12 sentabrdan** Davlat boshqaruv akademiyasida "**Rahbar ayollar maktabi**" o'quv dasturi asosida **48 nafari** o'qitilmoqda.

**4)** Tashkilot, korxona va muassasalarda ishlayotgan xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida **138 ta** markaziy muassasalarda hamda **19 123 ta** korxona va tashkilotlarda **xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yildi**.

Ular faoliyatini tizimli tashkil etish maqsadida Davlat boshqaruvi akademiyasida **124 ta** boshlang'ich tashkilot raislari uchun **seminar-trening o'tkazildi**.

**IV. Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yo'nalishida:**

**1) Xonadonlarda sog'lom turmush tarziga rioya etilishi bo'yicha "Xonodon gigienasini baholash" elektron platformasi yaratildi.**

**2) 2 mln. 200 mingdan ziyod** xotin-qizlar birlamchi tekshiruvdan, **650 mingga yaqin** nuroniy onaxonlar esa chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, natijada **4,5 mingdan ortiq** ayollarda **saraton kasalligi aniqlangan** bolsa, shundan **1,7 ming nafardan** ziyodida **saraton kasalligi barvaqt aniqlandi** va ularning tibbiy davolanishlari yo'lga qo'yildi.

**3) 648 261 nafar** nuroniy onaxonlar **chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan** o'tkazildi, ularning **127 289 nafari** zarur dori-darmonlar, oziq-ovqat, poyabzal bilan ta'minlandi, **15 126 nafari** sanatoriylarda davolanishlari tashkil etildi, **10 251 nafariga** reabilitatsiya vositalari taqdim etildi.

**5) Farg'ona viloyati** misolida mahallada ijtimoiy xizmatlarni yaxlit tizimini yaratish maqsadida "**Oila balansi**" namunasi yaratildi.

**6) Xotin-qizlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish borasida mahallalarda 10 411 ta sport to'garagi** tashkil qilindi.

Bugungi kunga qadar xotin-qizlar o'rtasida sektorlararo **28 472 ta** sport musobaqalari, "**Sport malikalari**" sport haftaliklari, "**Sog'lom oila - Yangi O'zbekiston tayanchi**" shiori ostida uch bosqichli sport musobaqalari, "**Sport - nafislik va salomatlik manbai**" shiori ostida mehnat jamoalarida sport festivallari o'tkazildi. Ushbu tadbirda **257 621 nafar** xotin-qizlar faol ishtirok etdi.

**V. Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni "Ayollar daftari" orqali manzilli qo'llab-quvvatlash yo'nalishida:**

**1) Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 644 849 nafar** xotin-qizlar "Ayollar daftari"ga kiritildi.

Bugungi kunga qadar daftarga kiritilgan **598 794 nafar** xotin-qizlarga (**92,9%**) amaliy yordamlar ko'rsatildi. Jumladan:

**208 966 nafari** (**97,4 %**) yangi ish o'rinnari va jamoat ishlariga joylashtirildi;

**39 665 nafariga** (**85,4 %**) tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun imtiyozli kreditlar ajratildi;

**165 283 nafar** (**92,1 %**) boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordamlar berildi, ularning **3 819 nafarining** uy-joylari ta'mirlandi;

**117 108 nafar** (**96,0 %**) ijtimoiy yordamga muhtoj 1 va 2 guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarga moddiy va tibbiy yordamlar ko'rsatildi, ularning **2 343 nafarini** uy-joylari ta'mirlab berildi;

**8 874 nafar** (77,7 %) uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlarga yordamlar ko'rsatildi, jumladan ularning **2 547 nafari** uy-joy bilan ta'minlandi, **6 327 nafariga** ijara kompensatsiyasi to'lab berildi;

**68 750 nafar** (96,8 %) qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ehtiyojmand ayollarga moddiy yordamlar berildi, ularning **3 963 nafariga** tomorqadan unumli foydalanish uchun ko'maklashildi.

"Ayollar daftari"ga kiritilgan **32 342 nafari xotin-qizlar** uchun "**O'zbekiston bo'y lab sayohat qil**" dasturi doirasida ichki turistik sayyohatlar tashkillashtirildi.

**2)** "Ayollar daftari"ga kiritilganlardan tashqari, **1 830 nafar** ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar uy-joy bilan ta'minlandi, **6 832 nafariga** uy-joy uchun boshlang'ich badal mablag'larini qoplab berish bo'yicha **subsidiyalar ajratildi**.

**3)** Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan **4 342 nafar** ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar jami **5 mrld. so'mlik** reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlandi.

Shuningdek, **1 386 nafar** ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarga jarrohlik amaliyotlari va davolanish xarajatlari uchun jami **19,1 mrld. so'mlik mablag'** yo'naltirildi.

**4) 27 540 ta** oila (*shu jumladan, 27 216 ta kam ta'minlangan va 1 605 ta notinch oila*) **ichki turistik sayyohatlarga** jalb etildi.

**5) 13 672 nafar** boquvchisini yo'qotgan ayollar farzandlari uchun davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga to'lanadigan **ota-onalik badalidan ozod etildi**.

## **VI. Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash yo'nalishida:**

**1)** Mutasaddi vazirliklar bilan hamkorlikda yuridik oliy ta'lim muassasalari o'quv reja va dasturlariga "**Tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar bilan ishlash**" mavzusi kiritildi.

**2)** Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka murosasizlik munosabatini shakllantirish, huquqiy nigelizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik hissini kuchaytirish maqsadida mahallalar va tashkilotlarda jami **16 620 ta tadbirlar** o'tkazildi.

**3)** Profilaktik hisobda turgan **27 013 nafar** xotin-qizlardan **14 669 nafari** moddiy-ma'naviy, ijtimoiy masalalarda amaliy yordam ko'rsatish orqali **hisobdan chiqarildi**.

**4)** Chekka hududlardagi mahallalarda istiqomat qiluvchi ayollarga ijtimoiy reabilitatsiya qilish xizmatini kengaytirish maqsadida **28 ta** hududiy va namunali tumanlararo markazlar qoshida **181 ta** "**Ijtimoiy maslahatxona**"lar tashkil etildi.

Ushbu markazlar orqali **4 052 nafar** xotin-qizlarga **maslahat va tavsiyalar berilishi yo'lga qo'yildi**, shuningdek, markazlar faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida **10,4 mrd. so'm** miqdorida mablag' yo'naltirildi.

**5)** Jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan va ixtisoslashtirilgan o'quvtarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan xotin-qizlar tomonidan qayta jinoyat sodir etishini oldini olish maqsadida:

**6 ta** jazoni ijro etish va manzil koloniylarida "Sen baribir muqaddassan, ayol", "Kitob – mening do'stim", "Baxtli bo'lish imkoniyati" kabi mavzularda **davra suhbatlari va ma'rifiy-madaniy tadbirlar** tashkil etildi.

**42-sonli** manzil koloniyasida **60 nafar** xotin-qizlar tadbirkorlik ko'nikmalari bo'yicha **60 soatlik o'quv kursida o'qitildi**.

**6) 1 716 nafar** tarbiyasi og'ir voyaga yetmagan qizlarning **1 300 ta muammozi hal etildi**.

**7)** Toshkent viloyati Chinoz tumanidagi "**Respublika qiz bolalar ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi**"da tarbiyalanayotgan **231 nafar** qizlarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida uchrashuvlar tashkil etildi.

**8)** Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va O'zbekiston kasaba uyushmlari Federatsiyasi bilan hamkorlikda **6 552 ta** tashkilotlarda xotin-qizlarning mehnat huquqlari ta'minlanganlik holati o'rganildi.

**9)** Uzoq muddatga yashash joyidan chiqib ketgan shaxslarning **39 364 nafar** farzandlarini ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash ishlari tashkil etildi.

**10)** Ichki ishlar organlari bilan hamkorlikda tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan **37 959 nafar** xotin-qizlarga himoya orderi berish natijasida **18 839 ta oilani yarashtirishga, 16 298 ta nizoni bartaraf etishga** erishildi, **4 744 ta** holatda ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik belgilanib, xotin-qizlar huquqlari tiklandi.

**11)** Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan **6 871 ta** jinoyat keng jamoatchilik ishtirokida muhokama etildi.

**12)** "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "**Oilada zo'ravonlikni oldini olish kompleks sotsiologik tadqiqoti**", "**Oilada jinoyatlar va zo'ravonliklar, oiladagi kriminogen muhit, kelib chiqish sabablarini tadqiq etish**", "**Xalqaro standartlar asosida oilada zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik xizmat ko'rsatishni takomillashtirish**", "**O'z joniga suiqasd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlarga kompleks yordam ko'rsatish**" mavzularida qisqa muddatli ilmiy-tadqiqot loyihalari o'tkazildi.

**13)** Mahallalarda xotin-qizlar va ularning yaqin qarindoshlari o'rtasida olib borilgan tushuntirish ishlari natijasida **355 225 nafar** migrant xotin-qizlarning o'z xonodonlariga qaytarilishi ta'minlandi.

**VIII. Oilaning tarbiyaviy-ta'lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish yo'nalishida:**

**1)** Oilalarda ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, milliy an'analarni asrab-avaylash borasida “**Farovon oila kelajak poydevori**”, “**Qadriyatlarimiz – beba ho boyligimiz**” shiori ostida **97 566 ta** ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.

Ayni paytda, “**Buvijonlar ma'rifati**”, “**Qizlar sayli**”, “**Dugonalar davrasi**” kabi turkum ma'rifiy tadbirlar davom ettirilmoqda.

**2)** Tuman (shahar)lardagi “**Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari**”da **53 930 nafar** nikohlanuvchi yosh yigit-qizlar mutaxassislar tomonidan o'qitildi.

**3)** Xotin-qizlar o'rtasida kiyinish madaniyatini targ'ib etish, milliy liboslarga mehr uyg'otish maqsadida “**Osiyo ramzi**” dizaynerlar uyushmasi bilan birgalikda **53 nafar targ'ibotchi-dizaynerlar** tayyorlandi.

Bugungi kunda ular tomonidan joylarda targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda. Milliy qadriyatlarimizga aylangan liboslarni xotin-qizlar o'rtasida keng targ'ib qilish, ularda milliy g'urur, faxr uyg'otish maqsadida “**Xon atlas**” festivali o'tkazildi, ushbu tadbirda **8 mln.** dan ziyod xotin-qizlar faol ishtirok etishdi.

Sirdaryo, Samarqand, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida “**Milliy liboslar**” markazlari ochildi.

Barcha hududlarda “**Milliy liboslar-millatimiz ko'zgusi**”, “**Milliy libos - millat qiyofasi**” shiori ostida **7 640** dan ziyod tadbirlar, ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlari, davra-suhbatlari o'tkazilib, ushbu tadbirlarga **42 380** dan ziyod aholi jalb etildi.

**208 ta** tuman va shaharlarda **503 ta** “**Onalar bog'i**” tashkil qilindi.

Bu yil mamlakatimizda ilk marotaba **15 oktabr** - “**Xalqaro qishloq ayollarli**” kuni keng nishonlandi, unda qishloq hududlaridagi **6 mingga** yaqin mahallada istiqomat qilayotgan **9 mln.** dan ziyod xotin-qizlarning kattayu kichik barchasiga bayram kayfiyati to'liq yetib borishi ta'minlandi.

**4)** Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

– **BMT Aholishunoslik jamg'armasi (YuNFPA)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi** hamkorligida Qoraqalpog'iston Respublikasining Mo'ynoq, Bozotau, Qo'ng'irot tumanlarida “**Ayollar daftariga kiritilgan qizlar tadbirkorlik, shaxsiy salohiyatini oshirish**”ga yo'naltirilgan seminar-treninglar o'tkazilib, unda qatnashgan **250 nafar** xotin-qizlar o'qitildi va ulardan **10 nafarining** biznes rejasi **moliyalashtirildi**;

Ayni paytda, ushbu jamg'armaning **383 ming AQSh dollari** miqdoridagi mablag'lari hisobidan **chegaraoldi hududlardagi qishloq ayollarining biznes loyihalari yo'lga qo'yilmoqda va bosqichma-bosqich moliyalashtirilmoqda**;

– **Jahon bankining 2,7 mln AQSh dollari** miqdorida grant mablag'lari hisobidan **Farg'ona viloyatinining Furqat, Uchko'priq, Yozyovon, Qo'shtepa** va

Jizzax viloyatining Yangiobod, Baxmal, Forish, Zomin tumanlarida “Ayollar daftari”ga kiritilgan chekka qishloqlardagi jami **58 nafar** ayolni ish bilan ta’minlash, **3 500 nafarini** tadbirkorlik ko’nikmalariga o’qitish, **350 nafarinining** biznes-rejalarini moliyalashtirish choralar ko’rilmoxqda;

- **BMTning Bolalar jamg’armasi (YuNISEF)** bilan hamkorlikda professional ijtimoiy xizmatlarni joriy etish bo'yicha Surxondaryo viloyatining **5 ta** tumanida **seminar-treninglar tashkil etildi** hamda ushbu viloyatning **721 nafar** mahalla xotin-qizlar faollari **planshetlar bilar ta'minlandi**;

- **Yevropa Ittifoqi** va **YuNISEF** tomonidan **Surxondaryo viloyatida** inklyuziv ta'lim, ijtimoiy xizmatlar va huquqiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini **kengaytirish dasturi** ishga tushirildi;

- Yevropa Ittifoqining **1,6 mlrd yevro mablag'lari hisobidan Surxondaryo viloyatida** **35 mingga** yaqin aholini inklyuziv ta'lim, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga o'qitish va huquqiy yordam berish va moddiy-texnik bazalar olib berish loyihasida ijrochi agentlik etib belgilandi;

- AQShning **Xalqaro taraqqiyot agentligi** (USAID), **Astrum IT** Akademiyasi bilan hamkorlikda Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tumanida **“200 nafar dasturchi qiz” loyihasi boshlandi** va mazkur loyiha doirasida **200 nafar** xotin-qizlar **6 oylik kurslarda** AKT, ingliz tili bo'yicha o'qitiladi va tadbirkorlikka yo'naltiriladi;

- **BMTning (YuNISEF)** Bolalar jamg’armasi hamkorligida “**Qurolli mojaroli hududlardan qaytarilgan ayollar va bolalar bilan ijtimoiy ish asoslari**” mavzusida sohaga tegishli **12 viloyat** va tumanlarning mahalla faollari uchun seminar-treninglar o'tkazilib, o'qitildi;

- YeIning “**BOMKA**” dasturi asosida **Buxoro, Xorazm, Samarkand, Surxondaryo, Samarkand, Qashqadaryo** viloyatlarida gender tengligi va migratsiyadan qaytarilgan ayollarni kasb-hunarga tayyorlash mavzusida seminar-treninglar tashkil etildi.

**5) Qo'mita hamda hududlardagi boshqarmalar faoliyatiga doir amalga oshirilgan ishlar markaziy va mahalliy ommaviy axborot vositalari orqali **33 ming 408 marotaba**, shundan televidenieda – **3 ming 840**, davriy nashrlarda – **2 ming 930**, radioda – **1 ming 298**, rasmiy saytlarda – **1 ming 466 marotaba**, internet va ijtimoiy tarmoqlarda – **27 ming 568 marta** yoritildi.**

Bundan tashqari, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi Axborot xizmati tomonidan **5 ta** Brifing, **3 ta** Matbuot anjumani, **1 ta** Xalqaro xotin-qizlar forumi, **1 ta** Xalqaro qishloq ayollari forumi, **4 ta** Mediatur o'tkazildi.